

"O'LIM" SO'ZINING EVFEMIZMLARI (MUHAMMAD YUSUFGA BAG'ISHLAB YOZILGAN "VIDO" SHE'RI TALQINIDA)

Aliqulova Dilafruz Oybek qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Pardayev Sirojiddin

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek adabiyotining serqirra shoiri, o'tgan asrning choragida adabiyotimizning pokiza osmonida yo'lchi yulduzdek porlagan, o'zining sodda va samimiyo so'zi, o'zigagina yarashadigan she'riyat bilan el nazariga tushgan, vatan kuychisi, istiqlol kuychisi buyuk shoir Muhammad Yusufga bag'ishlab yozilgan "Vido" she'rida o'lim so'zining evfemizmlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Muhammad Yusuf, "Vido" she'ri, evfemizm, o'lim, qazo qilmoq, rizq uzilmoq, ruzq-u saodatim, jon toraymoq, , ruh o'z ulfati jondan to'ymoq, jon pishmoq.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена великому поэту узбекской литературы, великому поэту Мухаммаду Юсуфу, сиявшему, как звезда на ясном небе нашей литературы в четверти прошлого века, пришедшему к вниманию народа своим простым и искренний голос, поэзия, подходящая только ему, великому поэту страны, певцу независимости Мухаммаду Юсуфу. В стихотворении говорится об эвфемизмах слова ученый.

Ключевые слова: Мухаммед Юсуф, стихотворение «Прощание», эвфемизм, смерть, обреченность, потеря пропитания, пропитания и счастья, сжимание души, душа истощена, душа истощена.

ANNOTATION

The article is dedicated to the great poet of Uzbek literature, the great poet Muhammad Yusuf, who shone like a star in the clear sky of our literature in the quarter of the last century, who came to the attention of the people with his simple and sincere voice, poetry suitable only for him, the great poet of the country, the singer of independence, Muhammad Yusuf. The poem talks about the euphemisms of the word scientist.

Key words: Muhammed Yusuf, "Farewell" poem, euphemism, death, doom, loss of sustenance, sustenance and happiness, soul shrinking, , the soul is exhausted, the soul is exhausted.

Tilimizning jonkuyar himoyachisi, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini ta'riflagan she'rlari, qo'shiqlari bilan tanilgan, el mehriga sazavor bo'lgan betakror shoir Muhammad Yusufga bag'ishlab yozilgan "Vido" she'rida **o'lim** so'zining evfemik birliklaridan keng foydalanganligini ko'ramiz.

Evfemizm atamasi grek tilidan olingan bo'lib, ko'pchilik mualliflar fikriga ko'ra, noo'rin birlikning o'rinli birlikka almashinuvni sifatida qaraladi. A.A.Reformatskiy

“Evfemizmlar taqiqlangan (tabulangan) so‘zlar o‘rnida qo‘llanishiga ruxsat berilgan so‘zlar” deya ta’rif beradi.

“Лингвистический энциклопедический словарь” да esa “Evfemizm – bu so‘zlovchi nazarida qo‘pol, noqulay bo‘lgan so‘z va ifodalar o‘rnida qo‘llangan, ularga ma’nodosh bo‘lgan emotsiyonal betaraf so‘z va ifodalar” deyiladi. A.Hojiyevning 2002-yilda qayta nashr qilingan “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati”da evfemizmga quyidagicha izoh beriladi: “Evfemizm (grek. euphemismos; eu-yaxshi, phemi – gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo‘pol beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol bo‘lmagan, botmaydigan so‘z, iborani qo‘llash”¹

Evfemizm tilning nutqiy qatlamida sodir bo‘ladigan jarayon - qayta nomlash bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, to‘la ma’ noda uslubiy ma’nodoshlik qatorini tashkil etish bilan xarakterlanadi. Evfemizmning “dabdabali” (tantanavor), “hurmat-ehtiromli”, “ko‘tarinki” ma’no ottenkalari bilan badiiy, ilmiy, so‘zlashuv uslubida qo‘llanilishi tilning keng imkoniyatlaridan dalolat beradi².

Biz ushbu maqolamizda Muhammad Yusufga bag‘ishlab yozilgan “Vido” she’rida “o‘lim” so‘zining evfemik birliklarini mohirona qo‘llaganligini ko‘rib chiqamiz. O‘zbek tilida o‘lim bilan bog‘liq evfemik vositalarining 300 ga yaqin variyanti topilganligi ahamiyatli³. Bu esa ularning turli vaziyat, matn va zamonda qo‘llanilishiga xoslangan turidan foydalana olish imkonini beradi.

O‘lim – bu tirik organizm hayot faoliyatining butunlay to‘xtashi, tugashi “qazo, O‘limga davo yo‘q. Bu ot qadimgi turkiy tildan “hayotidan mahrum bo‘l” ma’nosini anglatgan **o‘l** – fe’lidan -(u)m qo‘shimchasi bilan yasalgan o‘zbek tilida **o‘** unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan, ikkinchi bo‘g‘indagi **u** unlisi **I** unlisiga almashgan: **o‘l + um = o‘lum > o‘lim**⁴. O‘lim bilan bog‘liq evfemalar mazmuniga ko‘ra diniy va dunyoviy evfemalarga ajralgan. Tilshunos A. Omonturdiyev “diniy va dunyoviy evfemalar ko‘proq jonning mavjudligi, tanadan chiqib ketishi, u dunyoga -xudo huzuriga borishi, jannat yoki do‘zaxdan joy olishi kabi tushunchalar asosida paydo bo‘lgan”ligini ta’ kidlaydi. Shu kabi jon bermoq, ajalga omon bermoq, mangulik uyquga ketmoq kabi dindorlar nutqiga xos evfemik ma’noli birliklar qatoridan o‘rin oladi⁵. Shu o‘rinda O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufga bag‘ishlab shogirdi tomonidan yozilgan “Vido” she’rida “o‘lim” so‘zining turli xil evfemik birliklarini ham ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun:

Rizqim uzilganga o‘xshaydi, chog‘i,
Izlama, hech qanday tashhisu, malham.
Tobora avjlanar dardning o‘chog‘i,
Yetolmasam kerak Toshkentga ham.

Bu o‘rinda shoir shunchaki “o‘limim yaqin” deya she’rni boshlaganda ham bo‘ldi, lekin shoir oddiylikdan, dag‘allikdan qochish maqsadida **risqim uzilganga**

¹ X. Qodirova "O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm" Toshkent -2022. 5- bet.

² X. Qodirova "O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm" Toshkent -2022.17-bet.

³ .Omonturdiyev A.“Bir sòz lugati”.- Termiz : Jayxun, 1996.-B. 45.

⁴ Shavkat Rahmatullayev "O‘zbek tilining etimologik lugati" - Toshkent 2000. 1-jild.

⁵ X. Qodirova "O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm" Toshkent -2022).18-bet.



o‘xshaydi iborasini qo‘llash orqali she’rda ta’sirchanlikni yanada oshirgan. Shoир bu she’ridan so‘zlarning eng saralarini to‘plab mahorat ila qo‘llaganki , bunga tan bermasdan boshqa choramiz yo‘q. Negaki, salbiy ma’noni bildiruvchi, inson eshitganda qandaydir vahimaga tushadigan **o‘lmoq** so‘zini boshqa bir salbiy emotsiya bermaydigan so‘zlar orqali ifodalaydi. O‘quvchi she’rni o‘qiyotganda qo‘rquv, vahima bilan emas balki, so‘zlarning o‘ynoqilagini ko‘rib she’rga bo‘lgan qiziqishi yanada ortadi.

To‘xta, aytib qolay, **jon pishmasidan**,
Hammasi joyida:seyf, stol, polos...
Faqat yozuvchilar uyushmasidan,
Bir varaq ariza qarzim bor, xolos.

Ko‘rdingizmi, shoир qanchalar so‘z qo‘llashga mahoratlari ekanligini o‘lim so‘zining o‘rniga **jon pishmoq** iborasini qo‘llash orqali salbiy ma’noga ega bo‘lgan so‘zni ozgina bo‘lsada yumshatishga harakat qilgan. Yana bir narsa e’tiborimni tortdiki, shoirlar juda ko‘plab kitoblar o‘qiganligi uchunmi so‘zlarni qayerda va qay tartibda qo‘llashni juda yaxshi bilishadi. Nima uchun shoир aynan ”**jon pishmoq**“ iborasini qo‘llagan bir o‘ylab ko‘raylikchi. Dehqon biron bir yerni ag‘darib unga tarvuz yoki qovun ekdi, uni unib chiqunicha va palak yozib pishib yetulgunicha asrab avaylab parvarish qiladi, pishib yetilgandan so‘ng esa uni uzib oladi. She’rda ham shoир Alloh tomonidan berilgan bu umr tugab bitayotganligini , endi bu omonatni egasiga topshirish kerakligi, undan avval esa gaplarini aytib qolishi kerakligini ta’kidlagan desak adashmagan bo‘lmaiz.

Og‘zim quriyapti, suv ber, bir qultum,
”Ruh o‘zin ulfati jondan toymoqda“.
Oh, ota bo‘lib men, nima ham ko‘rdim,
Yuragim kuymoqda, ichim kuymoqda.

Bu o‘rinda shoир **o‘lim** so‘zining o‘rnida **ruh o‘zin ulfati jondan toymoqda** evfemik birligini qo‘llash orqali she’rda dag‘allikdan, g‘alizlikdan qochishga harakat qilgan. Insonning joni uzilishini tasavvur qilishning o‘zi odamni vahimaga soladi. Shoир shuning uchun o‘lyapman azoblanib, qynalib ketyapman deyish o‘rniga **ruh o‘zin ulfati jondan toymoqda** iborasini qo‘llab she’rdagi salbiylikni kamaytirgan. Bu o‘rinda yana shu narsani aytib o‘tishimiz keraki, ruh o‘zin ulfati jondan toymoqda bu iborada ruh jondan chiqib ketayotganligini ya’ni o‘z ulfatidan, jondan kechmoqdaligini bir tessavvur qilib ko‘ring. Shoир nega aynan bu iborani qo‘llagan chunki inson o‘lim yoqasida turganda butun hayoti, qilgan ishlari, bu hayotdan nimalarga ulgurdi, nimalarga ulgurmadi hammasi bir-bir ko‘z oldidan o‘tadi. Shu onda barcha voqealarni eslaydi aynan ruh jondan chiqayotganda.

Soat nechchi bo‘ldi, qosh qoraydimi,
Jonga tegdi dersan, shu shoiri ham.
”Menga havo yetmas...“, **jon toraydimi**,



Buncha hayalladi, Azroili ham.

Jon toraymoq iborasi ustida ozgina fikr yuritsak jon qanday torayadi, uni torayishini qanday bilamiz. Ushbu o'rinda insonning qiynalayotganligi unga havo yetmayotganligi nafasi qisayotganligini ko'z oldimizga keltiramiz. U o'limga rozi tezroq bu azoblardan qutilishni istaydi.

Ana kelayotir, ajal pishqirib,
Uzmoq bo'lar rizqu-saodatimni.
Qaysi bir so'zimda olar... ishqilib,
Aytishga ulguray Shahodatimni.

Ajal so'zini eshitgan zahotimiz birdaniga vahima bosadi. Shoир birinchi satrida ajal so'zini qo'llayapti, agar ikkinchi satrida ham **uzmoq bo'lar jonimni** so'zini qo'llaganida ko'z o'ngimizda ajal pishqirib kelayotganligi va jonni uzib olayotganligini tasavvur qilamiz. Shuning uchun shoир o'quvchini cho'chitib yubormaslik uchun **risqu-saodatimni** so'zini qo'llashni avzal ko'rgan. Ko'rib o'tganimizdek shoир she'rda o'lim so'zining evfemik birliklarini ajoyib tarzida qo'llagan.

Yuqorida biz o'lim bilan bog'liq evfemalarni mazmuniga ko'ra ikkiga ajratgandik. **Diniy va dunyoviy** evfemalar. Muhammad Yusufga bag'ishlab yozilgan "Vido" she'rida ko'rib chiqqan **o'lim** so'zining "rizq uzilmoq", "jon pishmoq", "ruh o'zin ulfati jondan toymoq", "jon toraymoq", "rizqu-saodat" evfemalarini diniy evfemalar sifatida o'rin oladi desak adashmagan bo'lamic. Davr o'tishi bilan bir guruh evfemalarning dunyoviylashgani xususida ham tilshunos A. Omonturdiyev o'z fikrini bayon etgan. Ayni guruhg'a **so'ngi soati yetmoq, qazo qilmoq** kabi evfemik ma'noli birliklar misol bo'la oladi.

N.M.Patapovning fikricha, salbiy emotsiyani yumshatish uchun qo'llanilayotgan evfemizm denotat bilan aloqani uzsa, u evfemizm emas balki haqiqatni buzishga urinishdir. Demak, o'lim so'zini yumshatish uchun qo'llanilayotgan evfemalar denotant bilan aloqani uzmashligi kerak ekan⁶. Muhammad Yusufga bag'ishlab yozilgan yuqoridagi she'rda ko'rib chiqqan o'lim so'zining evfemalari o'z denotati bilan aloqani uzmagan holda qo'llanilgan.

Mana Muhammad Yusufga bag'ishlab shogirdi tomonidan yozilgan "Vido" she'rida o'lim so'zining turli xil evfemik birliklarini ko'rib chiqdik. Shoирning bu she'rini o'qib ko'zga yosh olmaslikning iloji yo'q, albatta. Yana shu narsani ta'kidlab o'tishimiz joizki, ushbu she'r muallifi bilan suhbatda bo'lganimizda u kishi aytilarki, Muhammad Yusuf bilan ikki yil davomida birga bo'lishgan. Muhammad Yusuf vafot etganlarida uning janozasiga ulgurolmay qolganligini alam bilan esladi. Shuning uchun bo'lsa kerak ushbu "Vido" she'rini yozganligini aytdi. Bir qarashda she'r Muhammad Yusuf tilida yozilgandek go'yo. Satrlar, mazmunlar, so'zlar, qofiyalar, so'z qo'llash mahorati barchasi bizga serqirra shoirimiz Muhammad Yusufni eslatadi. Shoир ushbu she'rning oxirgi satrida **o'lim** so'ziga ajoyib o'xshatma qilgan:

⁶ X. Qodirova "O'zbek tilida evfemizm va disfemizm" Toshkent -2022. 18-bet.



O'LIM NIMA, BU HAM BITTA SAYR, ONA, O'G'LING QARO YERGA KETDI XAYR, ONA.

Satrning go'zalligini qarang "o'lim nima, bu ham bitta sayr, ona" bejizga farzandim orqamda qolsin tepkilab-tepkilab o'zi ko'msin deyishmas ekan. Hech bir onaga farzand dog'ini ko'rsatmasin, hech bir onadan oldin farzandi o'lmasin ekan. Shoir o'limni bitta sayr deyish orqali ozgina bo'lsada Muhammad Yusufning onasiga tasalli bergandek bo'lgan. Shoir hech qachon o'lmaydi, u bizning qalbimizda, yurak qo'rimizda, yozgan barcha she'rлarining satrlarida yashaydi.

Demak, biz ushbu maqolada o'lim so'zining turli xil ya'ni "risq uzilmoq", "jon pishmoq", "ruh o'zin ulfati jondan toymoq", "jon toraymoq", "risqu-saodat" degan evfemik birliklarini ko'rib chiqdik.

Adabiyotlar:

1. M. Yusufga bag'ishlab yozilgan " Vido" she'ri.
2. X.Qodirova "Ozbek tilida evfimizm va desfimizm". -T.:2022;
3. Hojiyev A. "Tilshunoslik terminlarning izohli lug'ati". — T.:2002;
- 4.OmonturdiyevA. "O'zbek nutqining evfemik asoslari". -Termiz:2000.
- 5.Shavkat Rahmatullayev "O'zbek tilining etimologik lug'ati .- Toshkent 2000. 1-jild.

